

**“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA TURLI SEMALARNI
ANGLATGAN TAKRORIY SO‘ZLAR TAHLILI**

Umurzakova Umidaxon Ahmadjon qizi

TATU Farg‘ona filiali O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Bunda takroriy so‘zlar haqida ma’lumotlar berilgan va T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida turli semalarni anglatgan takroriy so‘zlar tahlil etilgan, ularning asar uchun ahamiyati o‘rganilgan*

Kalit So‘Zlar: *takroriy so‘zlar, holat semasini anglatgan takroriy so‘zlar, harakat semasini ifodalagan takroriy so‘zlar.*

Takror haqida gapirishdan oldin, avvalo, T. Murodning takroriy so‘zlardan foydalanishiga e’tibor qaratsak. Masalan, T.Murod “Otamdan qolgan dalalar” asarida takroriy so‘zlarni juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llagan. Ma’lumki, “Bir asosning ikki marta takrorlanishidan hosil bo‘lgan so‘zlar takroriy so‘zlar deyiladi”¹⁹. Asarda esa takroriy so‘zlarning qismlari turli shaklda takrorlangan. Darsliklarda takroriy so‘zlarning to‘rt shakli qayd etiladi²⁰. Ularning barcha ko‘rinishlari asarda mavjud.

1. Har ikki qism bir xil shaklda:

Onamiz ohista - ohista to‘sakdan turadi²¹.

Bu shakldagi takroriy so‘zlar asarda juda ko‘p qo‘llangan. Deyarli har bir gapda mavjud.

2. Birinchi qism chiqish kelishigida, ikkinchi qism bosh va jo‘nalish kelishigida :

Olibsortar oriqdan oriq qo‘y boqadi. Olibsortar tozidan tozi qo‘y boqadi.(218-bet)

3.Birinchi qism bilan ikkinchi qism o‘rtasida ba-, -ma qo‘shimchalari qo‘yiladi:

- **Siz bilan qabatma - qabat yotibdi. Xo‘s, qalay joylashdingiz, ma’qulmi?**

(220-bet)

Takroriy so‘zlarning ikkinchi qismining birinchi tovushi fonetik o‘zgarishga uchraydigan to‘rtinchi shakli deyarli asarda kuzatilmaydi.

Bundan tashqari, takroriy so‘zlar anglatgan ma’nosiga ko‘ra ham turlicha namoyon bo‘ladi. Ularni quyidagi ma’no guruuhlariga ajratish mumkin:

1) belgi semasini anglatgan takroriy so‘zlar:

Direktorimiz bizni tag‘inda yuksak - yuksak zafarlar sari chorlaydi.(59-bet)

Parchadagi yuksak - yuksak takror so‘zida belgining orttirilishini ko‘rish mumkin.

Yer betida ana shu oppoq-oppoq tuzlar qoldi. (77-bet)

Bu misolda ham **oppoq-oppoq** takror so‘zida belgi semasi ifodalangan. Bizga ma’lumki, oppoq so‘zi birinchi bo‘g‘inni takrorlash yordamida hosil qilingan orttirma darajadagi sifat, ya’ni oqning orttirilgan darajasidir. Demak, orttirma darajadagi oppoq so‘zini takror holda qo‘llash orqali ma’nuning yanada kuchayishiga erishilmoqda.

2) holat semasini anglatgan takroriy so‘zlar:

a) holat ravishlari orqali

¹⁹ O.Hamroyeva.Ona tili. Ma’ruzalar to’plami.T.:2016.195-bet.

²⁰ O.Hamroyeva.Ona tili. Ma’ruzalar to’plami.T.:2016

²¹ Т.Мурод.Отамдан қолган далалар. Т.: 1994. 30-Б (keyingi o‘rinlarda faqat sahifalari berib ketiladi)

G'o'zalarim shig'il-shig'il shonaladi. (146-bet)

Ravish takrorlanganda ko'plik ifodalanmoqda.

b) holat ravishdoshlari orqali

Shoberdi baxshi bo'g'ilib – bo'g'ilib doston aytdi. (118-bet)

Ravishdoshlar takrorlanganda esa ayni holatning bir necha marta sodir bo'lganligini anglatiladi.

3) harakat semasini anglatgan takroriy so'zlar:

1.Men qizlarga qarab turdim-turdim - qizlar oting nima demadi! (148-b)

Parchada **turdim-turdim** takror so'zi harakatning uzoq davom etganligini anglatmoqda.

2.Yer osti suvi yer betida bug'landi- bug'landi – havolab uchib-uchib yo'qoldi.(77-bet)

Bu yerda esa **bug'landi- bug'landi** takror so'zida harakat semasi bilan birga birinchi parchadagidek davomiylig emas, balki tezlikda amalga oshganlik ifodalanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, takroriy so'zlarning badiiy asarda qo'llanilishi nutq ta'sirchanligi va ohangdorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Asarda belgi semasini anglatgan so'zlarni takroriy qo'llash orqali belgining ortiq darajada ekanligi ko'rsatilgan bo'lsa, holat semasi ifodalangan takror so'zlar orqali

holatni yanada aniqroq bayon etish, ko'plik yoki ko'p marta sodir bo'lish kabilarga urg'u berilgan.Harakat semasini anglatgan takroriy so'zlar o'sha harakat uzoq davom etganligini yoki qayta-qayta bajarilganligini, ba'zan tez va oson bitganligini ifodalaydi.